

GEFF II – Ipak Yuli Bank Yashil Krediti II

Mamlakat: O'ZBEKISTON

Loyiha raqami: 55999

Faoliyat sohasi: Depozitli Kredit (banklar)

Bildirishnoma turi: XUSUSIY

Ekologik toifasi:

Mo'ljallangan tasdiqlash sanasi: 2025-yil, 19-noyabr

Qaysi bosqichdaligi: O'rganilmoqda

Loyiha chop etilgan sana (ingliz tilida): 2025-yil, 8-oktyabr

Loyiha mazmuni:

“Ipak Yuli” aksiyadorlik innovatsion tijorat bankiga (Ipak Yuli Bank, IYB) O'zbekiston Yashil Iqtisodiyotni Moliyalashtirish Tashabbusi II (GEFF II Uzbekistan) doirasida 15 million AQSh dollari miqdorida yashil kredit (GEFF II Krediti II) taqdim etish. Ushbu mablag'lar GEFF II siyosat bayonotida belgilangan texnik va moliyaviy mezonlarga muvofiq, mos subloyihalarni amalga oshiruvchi subqarz oluvchilarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

Lahiya maqsadi:

GEFF II Krediti II O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga, xususan, gender jihatdan inklyuziv yondashuv asosida energiya samaradorligi sohasidagi investitsiyalarni kengaytirish orqali hissa qo'shadi. Loyiha avvalgi yashil moliyalashtirish operatsiyalarining muvaffaqiyatli tajribasiga tayangan holda Ipak Yuli Bankning yashil faoliyatini yanada kengaytiradi. Bank yashil loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ichki salohiyatni mustahkamlash uchun kompleks texnik ko'mak (TK) dasturidan foyda ko'radi.

O'tish davri ta'siri:

Kutilayotgan o'tish davri ta'sirining bahosi: 75

Loyiha “Yashil” o'tish maqsadlariga hissa qo'shadi, chunki mablag'larning 100 foizi Yashil Iqtisodiyotga O'tish (GET) faoliyatlariga yo'naltiriladi. Kredit O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga, energiya samaradorligi investitsiyalarini kengaytirishga, ekologik jihatdan barqaror, past uglerodli va iqlim o'zgarishlariga chidamli faoliyatlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi hamda iqtisodiyotning yuqori uglerodli va ekologik zararli yo'nalishlarga “qamalib qolish”ining oldini oladi.

Mijoz haqida ma'lumot:

“Ipak Yuli” aksiyadorlik innovatsion tijorat banki.

Ipak Yuli Bank O'zbekistondagi yetakchi xususiy banklardan biri bo'lib, asosan KO'B va chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan. Bozor ulushi 3 foizni tashkil etadi va aktivlar

hajmi bo'yicha 27 ta xususiy bank orasida to'rtinchi o'rinda turadi. Bankning muhim aksiyadorlari orasida nufuzli xalqaro investor institutlar — DEG va Triodos — mavjud.

YTTB moliyaviy xulosasi:

13,500,000.00 AQSh dollari.

Uch yillik garovsiz yirik kredit, yashil iqtisodiyot investitsiyalari uchun bir transhda taqdim etiladi. Umumiy 15 million AQSh dollari miqdoridagi moliyalashtirish quyidagilardan iborat:

- **YTTB hissasi:** 13,5 million AQSh dollari (kreditning 90 foizi);
- **HIPCA hissasi:** 1,5 million AQSh dollari (kreditning 10 foizi).

YTTB hissasi sintetik milliy valyutada (O'zbekiston so'mida), HIPCA hissasi esa AQSh dollarida taqdim etiladi.

Loyihaning umumiy qiymati:

15,000,000.00 AQSh dollari

Qo'shimchalar:

Moliyalashtirish tuzilmasi: YTTB tijorat bozorida mavjud bo'lmagan shartlarda, jumladan uzoq muddatli yoki milliy valyutadagi moliyalashtirishni taklif etadi. Ushbu moliyalashtirish loyiha tuzilishini shakllantirish uchun zarurdir.

Innovatsion moliyalashtirish vositalari va/yoki instrumentlar: kredit shartlari tijorat moliyalashtiruvchilarga nisbatan ancha qulay bo'lib, keng qamrovli texnik ko'mak (TK) paketini ham o'z ichiga oladi. Bu paket GET mezonlariga mos investitsiyalarni, barqaror kreditlash amaliyotlarini va gender jihatdan inklyuziv moliyalashtirishni rivojlantirishga qaratilgan. Subqarz oluvchilar energiya va iqlim auditi, texnologiyalar uchun minimal samaradorlik standartlari, iqlim strategiyalari, monitoring, hisobot va verifikatsiya tizimlari bilan shug'ullanadilar.

Standartlarni joriy etish: Ipak Yuli Bank YTTBning energiya va resurs samaradorligi, iqlimga moslashuv bo'yicha tajribasidan foydalanadi. YTTB texnologiyalar samaradorligi standartlari, iqlim siyosati, shuningdek monitoring va hisobot tizimlarini ishlab chiqish hamda joriy etish jarayonida metodik yo'l-yo'riq va amaliy ko'mak beradi.

Qo'shimcha foyda moliyalashtirishni xabardorlikni oshirish va salohiyatni rivojlantirish bilan birlashtirish orqali, ayollar va erkaklar uchun yashil moliyalashtirishga teng kirishni ta'minlash hisobiga yaratiladi.

Ekologik-ijtimoiy xulosa:

FI (ESP 2024) kategoriyasiga tasniflangan. Ipak Yuli Bank YTTBning amaldagi mijozidir. Bank mavjud YTTB majburiyatlari doirasida 2-, 4- va 9-sonli Ekologik va ijtimoiy talablar (ESR)ga muvofiq ishlamoqda. Ipak Yuli Bankda subloyihalar risk profiliga mos ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (ESMS) mavjud.

Mijoz ESMS tizimini saqlashi va zarurat tug'ilganda mustahkamlashi lozim. Bu tizim E&S risklari va ta'sirlarini baholash, boshqarish va monitoring qilish, shuningdek inson resurslari siyosati, ichki shikoyatlar mexanizmi hamda mehnat xavfsizligi tartiblarini o'z ichiga oladi. Bank YTTBning 2-, 4- va 9-sonli ESRLari hamda 2024-yilgi ESP talablari, shu jumladan istisno ro'yxatiga rioya qilishi shart.

Subqarz oluvchilar milliy ekologik, ijtimoiy, mehnat, sog'liqni saqlash va xavfsizlik qonunlariga amal qilishlari zarur. Ipak Yuli Bank har yili YTTBga E&S hisobotlarini taqdim etadi, unda ESMS amalga oshirilishi, subloyihalar skriningi natijalari va muhim E&S hodisalari yoritiladi. Shuningdek, Ipak Yuli Bank o'zining ESMS tizimi haqida ma'lumotni 2024-yilgi ESPga muvofiq jamoatchilikka oshkor etishi talab qilinadi.

Agar YTTB mablag'lari qayta tiklanuvchi energiya subloyihalariga yo'naltirilsa, ular YTTBning qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha Asosiy Bitimning ekologik va ijtimoiy mezonlariga to'liq mos bo'lishi lozim.

Yashil baholash:

Loyiha Parij kelishuvi bilan mos deb topildi. Bu baholash YTTBning bilvosita moliyalashtirilgan investitsiyalar uchun Parij bitimiga muvofiqlik yondashuvi asosida amalga oshirildi. Moslik 1-ustun (hamkroning Parij kelishuvi bo'yicha majburiyatlari) va 2-ustun (subtranzaksiyalarni filtrlash) mezonlariga asosan aniqlangan.

YTTB tomonidan ajratilayotgan moliyalashtirishning 100 foizi yashil sifatida tasniflanadi, chunki u iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va unga moslashish maqsadlariga xizmat qiladi. Ushbu tasniflash YTTBning yashil moliyalashtirish darajasini aniqlash metodologiyasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Texnik ko'mak (TK) va grant mablag'lari:

Ipak Yuli Bank yashil loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ichki salohiyatni kuchaytirish uchun keng qamrovli texnik ko'mak dasturidan foyda ko'radi. YTTB zarur tartib-taomillarni ishlab chiqish va joriy etishda ko'maklashish uchun metodologik vositalar va bilimlarni taqdim etadi.

TK: GEFF II O'zbekiston dasturini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun 3,55 million AQSh dollarigacha ajratilgan. Har bir ishtirokchi bank uchun alohida TK belgilanmagan. Manbalar: Iqlim Investitsiyalari Maxsus Jamg'armasi (CIF SCF), YTTB Aksiyadorlar Maxsus Jamg'armasi (SSF), "Gender tengligi uchun harakat" ko'p donorli hamkorlik jamg'armasi (A4EG) va Iqlim harakati bo'yicha yuqori ta'sirli hamkorlik (HIPCA).

TK bo'lmagan (Non-TC): HIPCA doirasida 1,5 million AQSh dollarigacha imtiyozli hamkorlik moliyalashtiruvi (kreditning 10 foizi).

Kompaniyaning aloqa ma'lumotlari:

Dilaziz Sultanov

E-mail: d.sultanov@ipakyulibank.uz

Tel.: +998 93 527 39 27, +998 78 140 69 05

Veb-sayt: <https://en.ipakyulibank.uz>

Manzil: 2, Abdulla Qodiriy ko'chasi, Toshkent shahri, 100017, O'zbekiston Respublikasi

PSD oxirgi yangilangan sana: 2025-yil, 10-oktyabr

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havolada](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika choratadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com electron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.